

**IQLIM O'ZGARISHI QUYI AMUDARYO HUDUDIGA TA'SIRINI
BAHOLASH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

Omonboyev Sh.D.

*Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat
universiteti*

***Аннотация:** В данной статье речь идет о причинах изменения климата в Каракалпакстане и некоторых его недостатках. Кроме того, приводятся мнения и мнения ученых о причинах изменения климата, а также примеры научных исследований.*

***Ключевые слова:** Климат, изменение климата, песчаная буря, Оролқум, Саксавуллзор, глобальная проблема.*

***Abstract:** This article is about the causes of climate change in Karakalpakstan and some of its disadvantages. In addition, the opinions and opinions of scientists about the causes of climate change, and examples of scientific research are given.*

***Key words:** Climate, climate change, sand storm, Orolqum, saxavullzor, global problem*

Kirish. Iqlim-bu o'z ichiga muayyan hududda uzoq vaqt davomida yig'ilgan harorat, namlik, atmosfera bosimi, shamol, yog'in va boshqa meteorolgik parametrlar statistikalarini oladi. Ushbu parametrlarning uzoq vaqt emas, balki muayyan vaqtdagi holatlariga ob-havo deyiladi. Boshqacha aytganda, iqlim-bu biror joydagi ob-havo holatlari to'plamidir. Iqlim o'zgarishi – bu keyingi yillarda ko'pgina olimlar tomonidan tadqiqoqt qilinayotgan mavzulardan. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston respublikasida iqlim tez-tezdan o'zgarib turadi.

Insoniyat oxirgi ikki yuz yillik davr davomida fan va texnikani rivojlantirish sohasida o'zi erishgan ulkan yutuqlariga qaramasdan, hamon iqlimiy sharoitlarga bog'liqlikdan xalos bo'la olmayapti. Iqlimning inson xo'jalik faoliyatining barcha qirralariga, jumladan, 140 qishloq xo'jaligi mahsuldorligi, gidroenergetika, hamma turdagi transport harakati, texnika mahsulotlarini ishlab chiqarish, ulardan foydalanish va boshqa sohalarga ta'siri yanada kuchliroq bo'lmoqda. Iqlim sharoitining inson psixo-fiziologik holatiga va uning sog'ligiga ta'siri ham kuchayib bormoqda. Iqlim sharoiti tobora ijtimoiy va hatto siyosiy ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishlari Yerning uzoq geologik o'tmishida ham yuz bergan, lekin ular tabiiy omillar ta'sirida ro'y bergan. Hozirgi kunda esa iqlimga asosiy ta'sirni inson faoliyati ko'rsatayotganligi aniq isbotlab berildi.

Iqlimning hozirgi kundagi o'zgarishlarining belgilari dunyo miqyosida sezilmoqda. Yer sharida o'tgan 100 yil davomida o'rtacha havo haroratining ko'tarilishi ushbu o'zgarishning belgilaridan biridir. Bu o'zgarish Yer sharida 0,6 °C ni tashkil etgan bo'lsa, Evropada 1,2 °C ga teng bo'ldi. Bundan tashqari, o'tgan 100 yil davomida dunyo va Evropa dengizlarida suv sathi 10-20 sm ko'tarildi. Atmosfera yog'inlarinmg miqdori ham o'zgardi, ekstremal - noqulay ob-havo hodisalari (iliq qishlar, yozdagi o'ta issiq kunlar, kuchli jala yomg'irlar, katta suv toshqinlari,

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

sayyoramizning turli qismlarida tog' muzliklarining keng miqyosda qisqarishi va boshqalar).

Bugungi kunda yerdagi iqlimni va uning o'zgarishini belgilovchi omillar: birinchisi bu tabiiy va ikkinchi esa bu albatda insonning turli ko'rinishdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan antropogen omillarga ajratiladi. Birinchi omil yerning har qaysi davrida iqlim o'zgarishiga ta'siri bo'lgan bo'lsa. Ikkinchi omil insoniyatning taraqqiyot rivoji bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Iqlim o'zgarishini biz Qoraqolpog'iston hududi xususan Orol dengizi misolida ko'rib chiqamiz.

Orol dengizi okean sathidan 53m balandlikda, Markaziy Osiyo cho'llarining markazida joylashgan. 1960-yillargacha u, maydoni bo'yicha, dunyodagi to'rtinchi eng katta (64,500 km²) ko'l hisoblangan va uning o'rtacha chuqurligi-16m, eng chuqur nuqtasi esa 68m ni tashkil etgan.


Orol dengiziga Markaziy Osiyoning ikki eng katta daryosi bo'lmish Amudaryo va Sirdaryo suvlari quyilgan. Ushbu daryo suvlaridan xalq xo'jaligida foydalanish, shunindek, 70-yillarda Amudaryoning Orol dengiziga quyilishini to'sib qo'yilishi, Orol dengizi qurishining asosiy sabablari hisoblanadi. So'nggi 30-40 yillar mobaynida, dengiz sathi keskin pasaydi. Orol dengizi suvi sathining o'zgarishi 1970-yildan boshlab izchil o'rganilgan. 2009-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Orol dengizining markaziy qismining butunlay qurishi kuzatildi. Ushbu davrda uning maydoni atigi 11,800 kv.km.ni, umumiy suv hajmi esa 1960 yilgi suv hajmining 10%ni tashkil etgan. Bu esa Orol dengizing qurib qolgan qisimida juda ko'plab masofalarga cho'zilgan sho'rxoq qumliklar paydo bo'lishiga olib keldi. Orolning qurib qolishi u yerda yashayotgan aholi va hayvonot dunyosiga va qolaversa Qoraqolpog'iston iqlimiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Orol qurishi Qoraqolpog'istonning avvalgi mo'tadil ob-havo sharoitini hozirgi kunda keskin kontinental yani qishi juda ham sovuq, yozi issiq va quruq bo'lgan hududga aylantirib qo'ydi. Iqlimning bunday bo'lishi shu hududda yashaydigan aholi uchun juda noqulay sharoitlarni keltirib chiqarmoqda. Qum bo'ronlarining ko'tarilishi, yil davomida yog'inlarni juda kam bo'lishi iqlim bu hududda qanchalik o'zgarganiga misol bo'la oladi.

Quyidagi keltirilgan statistik diagrammada Nukus, Taxtakupir, va Bustan meteostansiyalarida kuzalitgan yog'in miqdorlari keltirilgan. Bu shahrida 1990-yillar yog'in 180 mm bo'lgan bo'lsa hozirgi kungi kelib, yiliga hatto 90-100 mmga yetmaganiga guvoh bo'lasiz.

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan Nukus, Taxtakupir, Bustan meteorologik stansiyalarda kuzatilgan yillik yog'in miqdorining o'zgarishi

Undan tashqari Orol dengizining qurigan tubidan tuzli qum ko'tarilishi tuproqning erroziya uchrashini kuchaytirib, tuproq sarmahsulligini tushirib yubormoqda. Bu esa oziq- ovqat havfsizligiga juda kata tasir ko'rsatmoqda. Shunday holatlarning oldini olish maqsadida yurtboshimiz tomonidan orolning qurib qolgan qisimiga saksavulzorlar barpo etish va u yerdagi tuzli qumlarni kochishini oldini borasida ko'plab ishlar qilinmoqda. Qoraqalpog'istonlik olimlar Sultashova O'ralxan, Kurbanbayev Sagit, Imanmurzayev Adilbeklar tomonidan Qoraqalpog'iston hududida tuproq erroziyasining oldini olish, suv resurslaridan to'g'ri foydalanish va qolaversa iqlimning o'zgarishini oldini olish borasida ko'plab ishlar olib borilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda Orol dengizi qurishi oqibatida Qoraqalpog'iston iqlimi keskin yomonlashib bormoqda, insonlarning yashash davri ham qisqarib bormoqdalar. Bunga asosiy sabablardan biri suv yetishmovchiligi, iqlimning keskin o'zgarishi oqibati va aholi soning oshishiga ham bog'liq bo'lib qolmoqdalar. Shuning uchun ko'proq hozirda yashil energetika tizimiga va elektromobillarni keng qo'llanish taklif qilinadi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Султашова О. Г. и др. Моделирование температурного режима почвы //Ученый XXI века. – 2016. – №. 5-4 (18). – С. 30-34.
2. Sultashova O. G., Jaksibaev R. N., Aleuov A. S. Dangerous meteorological events affecting pasture plants in Karakalpakstan //Экономика и социум. – 2021. – №. 5-1 (84). – С. 476-480.
3. Sultashova O. et al. Modeling of Temperature Mode of the Soil //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 04. – С. 6057-6068.
4. Султашова О. Г., Далжанов К. О., Файзуллаева А. Х. По вопросу агроклиматического районирования территории Каракалпакстана //Инновационный потенциал развития науки в современном мире. – 2020. – С. 329-334.
5. Sultashova O. G., Kewnimjaeva A. A. The importance of soil thermal regime in the life of plants //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-1 (83). – С. 399-402.

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

6. Imanmurzaev A. Q., & Abdullaev , T. J. O. (2023). JANUBIY OROL BOYI IQLIM SHAROITI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(21), 73–77. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/983>
7. Imanmurzaev , A., & Sultashova , O. (2024). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI HUDUDIGA XAVFLI GIDROMETEOROLOGIK HODISALARNING TA'SIRINI BAHOLASH. Interpretation and Researches, 2(3(25)). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2187>
8. Хожамуратова Р. Т., Жангабаев Д. М., Иманмурзаев А. Қ. МНОГОЛЕТНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ МИНЕРАЛИЗАЦИИ ГРУНТОВЫХ ВОД НА ОРОШАЕМОЙ ТЕРРИТОРИИ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.
9. Imanmurzaev , A., & Kalmurzaev , J. (2024). OROL BOYI HUDUDIDA QURG'OQCHILIK HODISASINING O'ZGARISHI. Talqin Va Tadqiqotlar, 2(6(43)). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2064>
10. Султашова О. Г. и др. ЎЗБЕКИСТОН ХУДУДЛАРИДА ЧАНГЛИ БЎРОНЛАРНИНГ ҲОСИЛ БЎЛИШИ ВА ДАВОМИЙЛИГИ //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 11. – С. 45-49.
11. Genjebaevna S. O., Qaldibaevich I. A. QISHLOQ XO'JALIGIGA TA'SIR ETIVCHI XAVFLI GIDROMETEOROLOGIK HODISALARNI BAHOLASH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI) MISOLIDA //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 11. – С. 38-44.
12. Далжанов К.О., Утарбаева К.А. Қорақалпоғистонда деҳқончиликни ривожлантиришнинг минтақавий хусусиятлари // Ўзбекистон география жамяти. №53. - 2018. – Б. 111-113.
13. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
14. Турсунов М. Далжанов К.О. Қорақалпоғистонда деҳқончиликни ривожлантиришнинг айрим масалалари. Рациональное использование природных ресурсов Южного Приаралья. Материалы VII Республиканской научно-практической конференции. – Нукус. – 2017. – С. 172-173.